



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

18-NOYABR O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG'I QABUL QILINGAN KUN

Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni

O'ZBEKISTON DAVLATI



*O'zbekiston bayrog'i ko'tarildi chinakam,
Ushbu kunni ayting-chi, qay birimiz kutmadik.
Zarur bo'lgan chog'da goh dor tagida turib ham,
Qay birimiz tarixning sinovidan o'tmadik.*

*Dong'il safarga chiqdi endi hur O'zbekiston,
Kingadir oyoqosti, kimga u osmon bo'ldi.
Shukrkim, o'z-o'zini tanidi keksa jahon,
Ya'ni o'zbek davlatin jumlai jahon bildi.*

*Ne-ne kamsituvlarni ko'rgan shu boshim bilan
Ona xalqim, qoshingda tizza bukib turibman.
O'zbekcha gapirganda, bir chuqum oshim bilan
Sadaqai baxting deb borim to'kib turibman.*

*Garchi doim ungandir gulchekchaklar bog'imda,
Temur va Navoiyni eslaymiz takror-takror.
Men-ku uzoq yasharman, lekin ketar chog'imda
Tepamda egilajak o'z tug'im – bayrog'im bor!*

*Nasib etmish bu kunlar, taralsin yangroq unlar,
Do'stlar bilan yonma-yon qutlaylik bu ayyomni.
Iloyo boshimizga kelmasin qaro kunlar,
O'zbekim, deb ko'taring, do'stlarim, oltin jomni.*

1992 -yil 4 -mart.



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimariyam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Bir g'azal sharhi

Manzar Abdulxayr. Fido jonimni aylab.....3

Tadqiqot

Okila Turakulova, Hamid Ergashev. Shoir shaxsi va ijodiga xos samimiyat 6

Madina Daliyeva. Tilshunoslikda termin tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari..... 8

Maxsuda Karimova. Milliy folkloristikamizning fidoiy vakili..... 11

Rushana Nabiyeva. Yangi o'zlashayotgan taom nomlari xususida 13

Pulat Fozilov. Ingliz va o'zbek tillari sistemasida fiziologik holat fe'llarining o'rni..... 16

Sevara Yoqubova. Anonim xatlarda unli harflar imlosining shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi 19

Manzura Shamsiyeva. Badiiy matnda peyzaj birliklari: tadqiqotning zamonaviy yo'nalishlari va istiqbollari..... 22

Nilufar Toshpo'latova. Emotsional-ekspressiv munosabat ifoda etuvchi frazemalar tahlili..... 24

Tursunoy Yandashova. Go'zallik konseptining nazariy-metodologik asoslari..... 28

Dilfuza Shomalikova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari 31

Dilfuza Kamoljonova. Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarning mutolaa kompetensiyasini rivojlantirish..... 33

Xikmat Xikmatov. Junaydillo Hoziqning lirik she'rlarining g'oyaviy mazmuni 34

Gulruh Ne'matova. "Правда востока" gazetasi va "Uzbekistan.travel.com" saytidagi materiallarning tili, uslubi, janrlari.... 38

Sayyora Kurolova. Qolip konstruksiyalarining murakkab gaplarda qo'llanilish mezonlari..... 40

Nuriddin Dosanov. O'zbek tilida izohlovchining o'rni..... 42

Zilola Sayitqanova. Oilaviy munosabatlarning o'zbek va ingliz tilidagi mikrokonseptlari 44

Shahnoza Rasulova. Hofiz va shoirning adabiy hamkorligi..... 46

Dilrabo Qodirova. Konchilik terminologiyasi tizimida o'zlashtirilgan terminlarning lingvistik va ekstralingvistik jihatlarini 49

Manzura Pirnazarova. Omon Matjon ijodi Suvon Meli talqinida..... 51

Usenova Venera. Ingliz ertak matnlarida mifologemalarning gavdalanishi 54

Nargis Kudratxodjayeva. Eng kichik ma'no birliklari haqida 56

Omadjon Azamov. Zoofragmalarning leksik-grammatik tahlili..... 58

Kamola Haydarova. O'zbek, rus va ingliz tillarida jiyda leksemasining lingvokulturologik xususiyatlari..... 60

Gulnoza Shodiyeva. Training as a method of teaching intercultural competence..... 62



nutqda (ham bosma, ham qo'lyozma) adabiy me'yordan chekinish holati kam kuzatiladi.

Qo'lyozma matnlarda unli va undosh harflarning ifodalanish shaklini tahlil qilish lingvistik ekspertizada muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, ekspertizani tashkil etishda, nafaqat, mazmuniy (fonografik o'zgarishlar bilan bog'liq), balki shakliy tarafiga ham e'tibor qaratish lozim. Avvalo, qo'lyozmalarda belgilarning yoshga muvofiq xoslanishiga ko'ra aniqlab chiqilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wise C.M. Southern American dialect. – American Speech, 8, 1933. – P. 37-43.
2. Kurath H. & McDavid R. I. Jr. The pronunciation of English in the Atlantic states. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1961. – P. 58-6
3. Bondarenko L.V. Анализ речевой стратегии дискредитации в лингвистической экспертизе (на примере интернет-коментария) // Филологические науки. Вопросы, теории и практики. – 2014. – №10-1(40). – С. 27-29.
4. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. 8-bet.
5. Леви-Строс К. Структурная антропология. – М., 1985. – 54 с.
6. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шеваляри. – Toshkent, 1962. – 14 б.

Manzura SHAMSIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU (PhD)

BADIIY MATNDA PEYZAJ BIRLIKLARI: TADQIQOTNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: ushbu maqolaning dolzarbligi shu bilan belgilanadiki, birinchidan, badiiy matn ilmiy tadqiqotlarning obyekti sifatida filologlarni, birinchidan, o'zining struktural jihatdan ko'p komponentligi, muallifning mavzuviy va motivatsion o'ziga xosligi, kreativ konseptual mazmuni jihatidan, ikkinchidan, bu kabi obyektlarning namoyon bo'layotgan yangi jihatlarini lingvistik tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Badiiy matnning mohiyati, bunday matnning yuzaga kelish omillari va shartlari, prinsiplari, unda mualliflik niyatini mujassamlashtiruvchi strategiya va vositalari, uning tuzilishi va mazmuniy mundariyasi birliklari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lingan. Maqolada shu kabi ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: *badiiy matn, peyzaj, portret, lingvokognitiv yondashuv, interyer.*

Annotation: the relevance of this article is determined by the fact that, firstly, the artistic text as an object of scientific research creates the need for linguistic research of philologists, firstly, its structural multi-component, thematic and motivational specificity of the author, in terms of creative conceptual content, and secondly, new aspects of the manifestation of such objects. The essence of the artistic text is divided into valuable information about the factors and conditions, principles of the occurrence of such a text, the strategies and tools that embody the author's intention in it, the units of its structure and content content. Similar information is included in the article.

Keywords: *art text, landscape, portrait, linguocognitive approach, interior.*

Hozirgi vaqtda olamning badiiy manzarasi hodisasi dalillangan, bu tushunchaning ko'p qirrali mazmuni aniqlangan, uning mohiyati shundaki, "Olamning badiiy manzarasi – bu persepsiya, ya'ni "chet tomondan" idrok etilish mahsulidir". Olamning badiiy manzarasi milliy manzara (yozuvchining olam haqidagi individual-mualliflik manzarasiga asoslangan) va bevosita mualliflik pozitsiyasi (atrof-olamning individual idrok etilishi va talqin qilinishi), shuningdek, o'quvchining olam haqidagi individual manzarasini o'z ichiga oladi, chunki olamning badiiy manzarasi matn ta'sirida o'quvchi ongida yaratiladi. Badiiy matnni ko'p qirrali va o'ziga xos hodisa sifatida anglash til haqidagi fan rivojlanishining har bir bosqichida taqdim etiladigan talablarga asosan doimiy ravishda o'rganiladi, aniqlashtiriladi va to'ldiriladi. Deskriptiv xarakterdagi badiiy matnning muayyan birliklari, ya'ni interyer, portret, peyzajni tavsiflash yangi va dolzarb masala sanaladi. Metatilda muallifning tushunchasini belgilovchi muvofiq

tushunchalarga ega bo'linadi.

A.Erkinovning fikricha, peyzaj badiiy asar shaklining tarkibiy qismi bo'lib, u g'oyaviy mazmun ifodasiga xizmat qiladi. Peyzaj muallif asarda ilgari surgan g'oyaviy maqsadni ifodalashda u bilan uyg'unlashadi, mazmun o'ziga xos shaklni tanlaydi, shakl esa mazmunga qarab moslashadi. Aksariyat adabiyotshunoslik va tilshunoslik ishlarida aynan badiiy asarlardagi peyzajga alohida diqqat qaratiladi. Bunday ishlarining mavjudligi badiiy matn deskriptiv komponentining dolzarbligi, uni chuqurroq va to'liq o'rganish istiqbolidan dalolat beradi.

Peyzaj birliklari o'z semantikasi, birinchi navbatda, tasviriy, tilning turli darajasidagi grammatik ifoda vositalari (leksik, sintaktik, morfologik)ga ega bo'lgan, shuningdek, butun matn mazmuni uchun funksional ahamiyatligi mualliflar tomonidan ilmiy yondashuvlar va ilmiy bilim paradigmatlariga muvofiq turlicha anglanadi. Ulardan eng dolzarblarini ko'rib chiqamiz.

Badiiy matnda peyzaj birliklarini tavsiflashning ilmiy yondashuvlari

Ma'lumot nazariyasi. V.N.Ryabova peyzaj tushunchasiga an'anaviy tarzda izohli lug'atlarda (S.I.Ojegov) keltirilgani kabi ("joy ko'rinishi", "tabiat tavsifi") va ushbu matn birligining umuman satandart bo'lmagan "inson tomonidan yaratilmagan tabiat bilan bog'liq barcha narsa" ta'rifini keltiradi. Muallifning fikricha, matnning peyzaj birligidan o'rin olgan ma'lumot turlicha ifodalangan bo'lishi mumkin. Bu so'zlar boshqacha ma'no kasb etadigan o'ziga xos so'z birikmalari bo'lib, yangi ma'lumot tashuvchilari hisoblanadi.

Funksional yondashuv. L.V. Popovskaya badiiy asarda xabar matnini yaratishda peyzajlar qanday ishtirok etishini tushuntiradi. Badiiy asarlarda peyzaj ikki jihatdan: peyzaj tavsifida semantik va shakliy aloqalar nuqtayi nazaridan xabar va semantika jihatidan va peyzaj birliklarining struktur tomonidan o'rganilishi mumkin.

Lingvomadaniy va lingvokognitiv yo'nalish. A.S.Virodova lingvomadaniyat va tilshunoslik nuqtayi nazaridan "kolorativ" tushunchasini S.A. Yesenin va B.Rubsovlarning she'riy ijod negizida peyzajning jihatlaridan biri sifatida tadqiq etadi. Muallifning ko'rsatishicha, yorug'lik va rang tildagi boshqa leksik-grammatik guruh so'zlari kabi o'z ma'nosi, vazifasi, ramzi va etimologiyasiga ega. Rang kategoriyasi madaniyatning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, shaxs dunyoqarashi, emotsional va psixik holatini aks ettiradi, shaxsning olam manzarasi tushunchasiga kalit bo'la oladi. Muallif o'z ishida leksik va semantik ma'noni farqlaydi. Leksik ma'no – bu so'zning shartli, umumqabul qilingan ma'nosi. Semantik ma'no esa alohida individuallikka ega. She'riy ijod esa – so'z ijodining eng subyektiv shakli bo'lib, unda lirik qahramon o'ziga xos, hozirgi kechinmalarini,

hissiyotlar jilosini, tafakkur erkinligini ifoda etadi. Muallifning fikricha, aynan mana shuning uchun ham bitta rang bir ijodkor ijodida turli talqinga ega bo'lishi mumkin. Peyzaj tahlilidagi lingvokognitiv yondashuv metodlar tizimi (freym va konseptual tahlillar) hisobiga eng samarador hisoblanadi, chunki ularning qo'llanishi qismning badiiy asosiga chuqurroq kirish va uning konseptual tuzilmasini qayta tiklash imkonini beradi.

Peyzaj birliklari tipologiyasi

Badiiy matnning peyzaj qismlarini struktur-semantik tashkillashtirish tahlili natijasida peyzajning quyidagi muvofiq ifodalash til vositalariga ega bo'lgan tasnifiy turlari ajratiladi.

A. Semantik tur va uning ko'rinishlari.

1. Peyzaj birligi asosiy ma'lumotini idrok qilish usuli: a) dinamik (harakat fe'lli gap va qurilmalar bilan ifodalangan); b) statik (belgili gap va qurilmalar bilan ifodalangan).

2. Til tizimi va matnda ma'lumotning asosiy turlari.
2.1. Voqeiy (syujetli) yo'nalganlik: a) mavsumiy (yil fasli); b) mahalliy (joy ko'rinishi); v) temporal (sutka vaqtlari); g) metereologik (ob-havo); d) aralash (yuqorida keltirilgan belgilarning barchasi yoki ba'zilari vaziyatga qarab qatnashadi).

2.2. Ijtimoiy yo'nalganlik (tavsiflash obyekti xususiyatlariga muvofiq): a) qishloq peyzaji; b) shahar peyzaji; v) cho'l peyzaji; g) aralash va oraliq (o'rmon, stansiya, yo'l va b.) peyzajlar.

2.3. Psixologik vaziyatlilik: a) peyzaj-kayfiyat; b) peyzaj-kechinma.

2.4. Falsafiy yo'nalganlik: a) peyzaj-muhokama; b) peyzaj-axloqiy-etik; v) peyzaj birliklarining nostandart variantlari.

B. Grammatik turdagi peyzaj birliklari va uning turlari.

1. Peyzaj birliklarining sintaktik tuzilishi: a) peyzaj birliklarining to'liq modellari (gap, murakkab sintaktik butunlik); b) noto'liq (grammatik qisqargan) peyzaj birliklari modellari; v) kommunikativ ifoda shakliga ko'ra (dialog, monolog).

2. Peyzaj birliklarining leksik to'ldirilganligi: a) yil fasllari (yoz, qish, bahor); b) sutka vaqtlari (kech, oqshom, tun, tong); d) ob-havo (sovuq, qahraton, tuman, shamol); e) fazoviy (quyosh, oy); f) havo-makon (osmon, havo, bo'shliq, bulut, ufq); g) suv (daryo, qirg'oq, okean, plyaj) h) aholi punkti (qishloq, maydon, mamlakat, shahar, g'or); i) yer (yog'och, yo'l, tog', tepalik); j) hayvonot olami (ot, eshak); qushlar: qarg'a, bulbul; hasharotlar: chumoli; k) o'simlik dunyosi (gullar, daraxtlar, butalar); l) kayfiyat (baxtlilik, omad, quvonch, xafalik).

D. Peyzaj birliklarining funksional turi va uning matndagi turlari: peyzaj-ekspozitsiya, peyzaj-xotima, peyzaj-leytmotiv va peyzaj – tafsilotlar. Peyzajning har bir turi quyidagi jihatlarni hisobga olgan holda tadqiq qilinishi lozim: 1) asar muallifining badiiy maqsadi,

vazifalari va uning motivatsion asosini; 2) ularning semantik tuzilmasida ifodalangan yashirin ma'nolarni qayta tiklashga yo'naltirilgan.

Xulosa

Til metaforasi matnning ifodaliligi va obrazlilikini yaratishdagi eng yorqin va kuchli vosita sanaladi. Muallif so'z va so'z birikmalarining metaforik ma'nosi orqali, birinchi navbatda, ta'sirlanayotgan obyektning ko'rimlilikini kuchaytiradi, shuningdek, predmet va hodisalarning o'ziga xosligi, individualligini beradi. Badiiy tilda til metaforasi – bu obrazli tafakkur hodisasi bo'lib, tasavvurni kengaytiradi va boyitadi, emotsional bo'yoqni anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Выродова А.С. Лингвокультурологическое пространство колоративов в русском поэтическом дискурсе первой половины XX века: на материале поэтических текстов С.А. Есенина и Н.М. Рубцова: автореф. дис. ... канд. Филол. Наук. Белгород, 2008. 22 с.
- 2.Лысова О.О. Структурно-семантическая организация описательных фрагментов текста: автореф. Дис. ...канд.филол.наук. Уфа, 1998, 21 с.
- 3.Эркинов А. Навоий – пейзаж устаси. Т.: Фан, 1988. Б.6.
- 4.Рябова В.Н. Пейзажная единица текста: семантика, грамматическая форма, функция (на материале произведений А.П.Чехова): автореф. дис. ... канд. филол. наук. Тамбов, 2002. 25 с.

Nilufar TOSHPO'LATOVA,
 O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
nilufar.toshpolatova@mail.ru

EMOTSIONAL-EKSPRESSIV MUNOSABAT IFODA ETUVCHI FRAZEMALAR TAHLILI

Annotatsiya: frazeologizmlar obrazli til birliklari hisoblanadi. Shu bois, nutqimizni ta'sirchan va ko'rkam qilish uchun ulardan keng foydalanamiz. Frazemalar yordamida kesatq, nafrat, jirkanish, haqarot, qarg'ish kabi salbiy; erkalash, hazil, rag'batlantirish kabi ijobiy qo'shimcha ma'no nozikliklarini ifoda etish mumkin. Frazelogizmlarning asosiy qismi nutqda ma'lum uslubiy maqsad - ekspressivlik uchun xizmat qiladi. Shu bois, frazeologizmlar badiiy matnda obraz, personaj, xarakter qirralarini to'la ochishda, voqea-hodisa, holatlarini obrazli, bo'rttirib tasvirlashda qo'llanadigan muhim til birligi hisoblanadi.

Maqolada frazeologizmlarning o'rganish bosqichlari hamda badiiy adabiyotda frazeologizmlarning qo'llanishi lingvistik tahlillar yordamida yoritiladi.

Kalit so'zlar: *lingvistika, frazeologiya, psixolingvistika, badiiy matn, emotsional-ekspressiv*

Annotation: phraseologisms are figurative language units. Therefore, we use them widely to make our speech impressive and attractive. Using idioms, negative such as cursing, hatred, disgust, insults, cursing; it is possible to express positive additional meaning subtleties such as caressing, humor, encouragement. The main part of phraseologisms serves a certain stylistic purpose in speech - expressiveness. Therefore, phraseologisms are an important language unit that is used in artistic text to fully reveal the image, character, character, and to describe events and situations figuratively and exaggerate.

The article describes the stages of learning phraseology and the use of phraseology in fiction with the help of linguistic analysis.

Key words: *linguistics, phraseology, psycholinguistics, artistic text, emotional-expressive*

Аннотация: фразеологизмы являются образными языковыми единицами. Поэтому мы широко используем их, чтобы сделать нашу речь впечатляющей и привлекательной. Использование идиом отрицательных, таких как ругань, ненависть, отвращение, оскорбления, ругань; можно выразить положительные дополнительные смысловые тонкости, такие как ласка, юмор, поощрение. Основная часть фразеологизмов